



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

“BOBURNOMA”DA O‘ZLASHGAN QATLAMGA OID ORNITONIMLAR ETIMOLOGIYASI ORNITHONYMS RELATING TO THE LAYER CONTAINED IN “BABURNAMA”

Kenjayeva Dildora Eshmamatovna
O‘qituvchi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-pochta: dildorakenjayeva44@gmail.com

ORCID: [0009-0005-7777-4607](https://orcid.org/0009-0005-7777-4607)

Annotatsiya: O‘zbek tilida leksik qatlam juda boy. Har qanday tilning ijtimoiy tabiatiga ko‘ra, tilga doimo yangi o‘zlashmalar kirib kelishi, ba‘zi leksemalarning faolligi pasayishi yoki iste‘moldan chiqishi kuzatiladi. So‘zlarning etimologik tahlil qilinishi esa, tilning aslligini va o‘z qatlamining jozibasini namoyon qiladi.

Tabiat va inson bir-birini to‘ldiruvchi mavjudlikdir. Tilimizda zoonimlar tarkibida ornitonimlarning tadqiq qilinishi ham ahamiyatlidir. Qushlar qadimdan insonlarning hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Xat xatuvchi, go‘sh uchun ovlanishi, shohlarning sevimli qushlari bo‘lganligi haqida ma‘lumotlar yetarli. Maqolada “Boburnoma”da o‘zlashgan qatlamga mansub ornitonimlarning etimologik tahlili keltirilgan.

Kalit so‘z: etimologiya, ornitonim, zoonim, o‘zlashgan qatlam, bulbul, sandug‘och, kabutar, tovuş, buqalamun, burgut, sor, shahboz, ro‘bai parron.

Annotation: The lexical layer in the Uzbek language is very rich. According to the social nature of any language, new borrowings are constantly entering the language, some lexemes decrease in activity or go out of use. Etymological analysis of words reveals the originality of the language and the charm of its layer.

Nature and man are complementary entities. The study of ornithonyms in the composition of zoonyms in our language is also important. Birds have been important for human life since ancient times. There is enough information about them being messengers, hunted for meat, and favorite birds of kings. The article presents an etymological analysis of ornithonyms belonging to the borrowing layer in the “Boburnoma”.

Keywords: etymology, ornithonym, zoonym, assimilation layer, nightingale, sandpiper, pigeon, peacock, chameleon, eagle, sorrel, kingfisher, robin.

“Boburnoma” XV-XVI asr eski o‘zbek adabiy tilining memuar janriga oid yorqin namunasi hisoblanadi. U faqatgina turkiy tildagi emas, balki Sharq madaniyatidagi noyob adabiy-memuar asar sifatida qadrlidir. “Boburnoma” qomusiy asar hisoblanib, uning leksikasi o‘zbek tili tarixini o‘rganishda lug‘aviy sath qonuniyatlarini, tarixiy leksikologiya masalalarini yoritishda, eski o‘zbek adabiy tili lug‘aviy taraqqiyotiga xos qonuniyatlarni, leksik-semantik jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega [Xolmanova 2021:30-31].

Bobur asarni uzoq yillar davomida hayotidagi muhim voqea-hodisalarni boy leksika va tasvir orqali ifodalagan.

“Boburnoma”da Farg‘ona, Samarqand, Andijon, Afg‘oniston, Hindiston tabiati, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, xalqlarning yashash tarzi, madaniyati, leksikasi keng o‘rin egallagan. Bobur asarida yilma-yil o‘zi yashagan va ko‘rgan hududlarining tasvirida nabotot dunyosining ajralmas qismi hayvonot olami, uning o‘ziga xosligi, iqlim va regional betakror xususiyatlarini ham bayon etadi. Asarda Andijon, Samarqand, Afg‘oniston, Kobul va Hindiston tevarak-atrofidagi o‘nlab yovvoyi, xonaki hayvonlar, qushlar va xilma-xil baliqlar haqida ma‘lumotlar hayratlanarli ifodaga ega. Bu tasvirlar Boburning ulug‘ tabiatshunos olim ekanini ham isbotlaydi [Rasulova, 2005].

“Boburnoma”da muallif so‘z etimologiyasiga oid qarashlarini ham aks ettirgan. Asar matnida Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad antroponimlari, Qarshi, Kashmir, Lamg‘anot, Hotiypul, Balda‘i mahfuza, Ko‘hi Safid, Hodarvesh, Seyoron, Ko‘hi Jud, Savolik parbat (Himolay tog‘i), Shohi Kobul toponimlari, Laqlaqa, Muqatta‘, Chinnixona kabi masjid nomlari, Kakka, Nilagov, Murg‘aki Qarshi singari zoonimlar etimologiyasi keltirilgan.

Asarda ornitonimlar turkiy, fors, arab, hind tilida uchraydi. Ular orasidagi farqlarni qiyoslash, asosan, shakl, rang-tus, ozig‘i, yashash holati, nomlanishi kabi jihatlarni inobatga olgan. Bobur hind hayvonlari tasvirida ularni o‘z yurtidagi zoonimlarga solishtirish orqali ifodalagan. Asardagi o‘zlashgan qatlamga oid ornitonimlarning etimologik jihatdan yoritilishi tilimizda so‘zlarning ma‘nosini aniqlash va ularning imkoniyat darajasini ko‘rsatadi.

Tilimizda so‘zlarning rang-barangligi, ularning ma‘nosi va mazmuni haqidagi bilimlarning yoritilishi so‘z ma‘nolarini aniqlashda ularning etimologik tavsifi muhim ahamiyatga ega. “Boburnoma”da o‘zlashgan qatlamga oid ornitonimlarning ba‘zilari ikki nom bilan ataladi. Bu tilimizda o‘zga til shaklini namoyon qiladi. Ba‘zan o‘zlashgan zoonim leksik jihatdan ustunlik qilganini uchratamiz.

“Boburnoma”da tilga olingan **bulbul** ornitonimi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, leksema XIV asr Xorazm obidalarida, Alisher Navoiy asarlarida ham bulbul shaklida qo‘llangan. Navoiy asarlarida ornitonim arabcha *andalib* va fors-tojikcha *hazārdāstān* va uning qisqartmasi *hazār* shakllarini ham qo‘llanilgan [Abdushukurov, 2020:58].

“Boburnoma” matnida bulbul Hindistonning ko‘yil qushi ta‘rifida keltiriladi. “*Yana biri ko‘yildir, Hinduston bulbuli bu emish. Hinduston eli qoshida bulbulcha hurmati bordir*” [Bobur, 1960:351]. Bulbul O‘TILda, fors tiliga mansub bo‘lib, chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush ta‘rifini keltirilgan [O‘TIL, 2006-2008:369]. Etimologik lug‘atda ornitonim nomlanishida tovush tuzilishini (bulbul) hisobga olib, bul-bul tovushga taqlid takroridan o‘sib chiqqanligi haqida ma‘lumot keltiriladi [Rahmatullayev, III. 2009:51].

Sandug‘och ornitonimining ikkinchi nomi jibljibon bo‘lib, asarda faqat sandug‘och shaklida kelgan. Sariq jibljibon katta bo‘lmagan xushbichim qush hisoblanadi [Bobur ensk., 2017:411]. Jibljibon chumchuqsimonlar tukumiga mansub, uzun dumli kichik qush [O‘TIL, 2006-2008:80]. “*Yana bir qushqinadur, uluqlug‘i sondug‘ochcha bo‘lg‘ay, xushrang qizildur, qanotlarida ozroqcha qoralari bordur*” [Bobur, 1960:351]. Bu yerda ornitonim hajm jihatdan solishtirishda qo‘llangan.

Keyingi ornitonim **kaptar (kabutar)** bo‘lib, “Oltin yorug‘”da *kökürkän*, eski turkiy yodnomalarida *kökürkün* ko‘rinishida, yana *kökärçin*, *ökarçin*, *küvärçin*

shakllarida ham ifoda etilgan. Xorazm manbalarida *kögärçin//kügärçin//kögürçün* ko'rinishlarida ifodalangan. *Kökärçin* asosida kök- “osmon”, “ko’k” so’zi yotadi, unga –ar yasovchi qo’shib, –çin turkiy tillarda qush nomini ifodalovchi qo’shimcha bilan XIV asr Xorazm manbalarida *kabutar* o’zlashmasi sinonim sifatida qo’llana boshlagan. Bu so’z ma’nosida ham yasama, ham tub so’zdan foydalanilganini ko’rsatadi. Eski o’zbek tilida *hamāma* sinonim sifatida qo’llangan. Radlov lug’atida *ögäyik*, *ögäyk* variantlari uchraydi. Zoonim *ögäy*=“g’uv-g’uvlamoq”, “g’urillamoq” (kaptarga xos) so’zidan yasalgan bo’lishi mumkin [Abdushukurov, 2020:58]. O’TELda *käftär* shaklida kelib, *käbutär* shaklida havola qilingan. Tojik tilida *kabo’tar* shaklida, o’zbek so’zlashuv tilida *kaptar* deyiladi. O’zbek tilidagi *kaptar* shakli *kabutar* shakli tarkibidagi u tovushini talaffuz qilmaslik va b tovushini p tovushiga almashtirish bilan hosil qilingan deyish mumkin. Bu ot asli “*ko’kish tusli qush*” ma’nosini anglatadi [Rahmatullayev, III. 2009:113]. *Kabu(d)+tar* shakli, “*ko’kish, ko’kroq, ko’kimtir, ko’kimtil*” ma’nolarida fors-tojik va turkiy tillarda ham bir ma’noni anglatishi qardosh bo’lmagan tillar orasidagi kam uchraydigan hodisadir [Vafojev, 1991:113]. Asar matnida Nijrov tog’larida uchraydigan navcha qushi, ya’ni buqalamun ta’rifida uning bo’yni kaptarnikiga o’xshatilgan. Kabutar shaklida: “*Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub shunqor bo’ldi*” [Bobur, 1960:64], “*kabutar saxlab, kabutar o’ynar edi*” [Bobur, 1960:223] jumllarida kelgan. O’TILda rang-barang tusli va turli katta-kichiklikdagi xonaki yoki yovvoyi qushlarning umumiy nomi [O’TIL, 2006-2008:318] ni anglatishi keltirilgan.

Tovus ornitonimi rang-barang patlarga ega bo’lib, eski turkiy yodnomalarda *yun quš* birikmasi orqali ifodalangan. Bu so’z turkiy tillarga xoslikni jamlasa-da, keyingi davr manbalarida uchramaydi. Ushbu zoonim yun “pat”, “yung”, “tuk” va “quš” so’zlarining birikmasidan yuzaga kelgan. XIV asr Xorazm manbalarida zoonimning nomi arabcha *tāvus* termini bilan qo’llana boshlagan. Bu tub ma’noga ta’sir etmagan. Radlov lug’atida *tāus*, *tāvus* fonetik variantlari bor. O’TELda bu so’zning arabcha *tāvūs(un)* shaklidan unlilar almashinuvi natijasida *tāvūs*→*tāvus* (*tovus*) shaklini olganligi keltirilgan. Ma’nosi “bezadi” *tavvasa* fe’lidan yasalgan sifat bo’lib, asli “bezangan” ma’nosini anglatadi [Rahmatullayev, II. 2009:445]. *Tovus* qirg’ovullar oilasiga mansub, rang-barang patli, erkagining dumi yelpig’ich shaklli chiroyli qush [O’TIL, 2006-2008:130]. “Boburnoma”ning bir necha o’rinlarda *tovus* ornitonimi uchraydi. Hindiston qushlari ta’rifida hind *tovus*ining sifatlari keltirilgan [Bobur, 1960:347] (qarang: *mo’r* va *tovus*). Asar matnida ornitonimning 6 xil turi tasvirlangan.

Keyingi ornitonim **laklak (laylak)** bo’lib, fors-tojikcha *laklak* shaklida bo’lgan. Ba’zi manbalarda *käläk*, *ayyuq* variantlari ham mavjud [Abdushukurov, 2020:67-68]. Bu so’z arabcha *laqaq(un)* shakliga ega, fors tilida *laqlaq* va *laglag* shakllarida talaffuz qilinadi. Keyinchalik o’zbek va tojik tillarida ham *laylak* tarzida aytila boshlagan. Mazkur ornitonim arab tilidagi *laqlaqa* fe’lining “tumshug’ini bir-biriga urib tovush chiqardi” ma’nosi asosida hosil qilingan. Asli “*laq-laq tovushini chiqaruvchi qush*” ma’nosini anglatgan [Rahmatullayev, II. 2003:207]. Uzun oyoqli qushlar turkumiga mansub, tumshug’i va oyog’i uzun, parlari ola (oq va qora aralash) katta qush hisoblanadi [O’TIL, 2006-2008:484].

“Boburnoma”da ornitonim Boburning shahbozi ko’p tutgan qush sifatida keltirilgan: “*turnani va laklakni asru xo’blar olib edi*” [Bobur, 1960:299]. R.Aratning

turkcha tarjimasida “*Turna ve keklegi fevkelade iyi tutardi- (Shunqorim) turna va kaklikni yaxshi tutardi*” tarzida berilsa, S.Hasanov tayyorlagan matnida “*Shahbozim turnani va laklakni yaxshi tutar edi*” deb beriladi [Bobur, 2002:171]. Kaklik va laklak (laylak) boshqa-boshqa qushlar. Bilamizki, kaklik ovlangan, bu haqda ko'p manbalarda yozib qoldirilgan. Lekin laylakni ovlash haqidagi ma'lumotlarni uchratmaymiz. Tabdilda bunday kamchiliklar mazmun va mantiqning buzilishiga olib keladi. Bu nuqson turkcha tarjimada tuzatilganini ko'rish mumkin [Muhammadiyeva, 2021:31]. Hindiston qushlaridan manik va nomi keltirilmagan bir qush jussasi va shakli laylak bilan qiyoslangan. Hindistonda yashovchi laylaklarning ikki turi o'z yurtida uchraydigan laylaklarga solishtirilgan [Bobur ensk., 2017:256]. “*Yana bir laklakdur. Bo'yni oqdur, boshi va jami' a'zosi qoradur. Ul viloyatlarg'a borur laklakdin kichikraqdur. Bu lakalkni Hindustoniya "yakrang" der. Yana bir laklakdur- rangi va baz'i tamom ul viloyatlarg'a borur laklaklardektur. G'oyatash, tumshug'i qoraroqtur. Ul laklakdin xili kichikdur*” [Bobur, 1960:350]. Asar matnida uch xil laylaklar tasviri kuzatiladi.

Buqalamun ornitonim sifatida keltirilgan. U o'z tusini o'zgartira oladigan hayvon [Is'hoqov, 2008:35] ma'nosiga ega bo'lib, shu xususiyati uchun qadimgi yunon afsonasida buqalamun deb atalgan. Buqalamunning daraxtlarda o'ljasini poylagani va kichik sakrashlari sabab qush deb atalgan bo'lishi mumkin. Buqalamun arabcha “tovlanuvchan, xameleon” daraxtlarda yashovchi, sudralib yuruvchi, sharoitlarga qarab rangini o'zgartiruvchi kaltakesaksimon jonivor hisoblanadi [O'TIL, 2006-2008:392]. Ost-Indiyada va zond arxipelagida uchar kaltakesaklar bo'lib, boshi qo'ng'ir tusda, yelkasi och qizil, “qanotlari” qora yo'l-yo'lli va xoldor. Ular daraxtlarda yashaydi va ola-bula tusi tufayli deyarli ko'rinmaydi. Agar ehtiyoji bo'lmasa, umuman yerga tushmaydi. O'ljasini ko'rsa, qanot qoqib, olisga sakraydi (5-6 metrgacha) va o'ljasini uchib borayotgan holda tutadi va yana novdaga qaytib qo'nadi. Uzunligi 21 sm.dan oshmaydi [milliycha.uz sayti]. Ko'rinadiki, ba'zi jihatlar “qish bo'lgach, tog' domanalariga tushsa yaxshi ucholmasligi” Bobur tasviriga to'g'ri keladi, ammo “*kabutarning bo'ynidek, barroqdur, uluqlug'i kabki dariycha bo'lg'ay*” [Bobur, 1960:193] sifati bilan Bobur kaltesakka o'xshash jonivorni emas, qushni tasvirlagan deb xulosa qilish mumkin (qarang: *lo'cha*). “Boburnoma”da buqalamun haqida ma'lumot berilmagan, ammo lo'cha qushining bir turi tovlanadigan patlarga ega bo'lganligi uchun Nijrov tumanida ham, Hindistonda ham “buqalamun” deb atalishi ta'kidlangan [Bobur ensk., 2017:175]. Lo'cha qushining “*Bu tog'larda lucha qushi ham bo'lur. Bu qushni buqalamun derlar, boshidin quyrug'igacha besh-olti muxtalif rangi bor*” [Bobur, 1960:193]. Tovlanish xususiyati buqalamunga qiyosan shunday nomlangan bo'lsa kerak. Bobur ham mahalliy aholi nomlashi asosida zoonimni shu tarzda keltirib o'tgandir, ehtimol. Sababi muallif ularni rangin deb ta'riflagan, ularning o'zgaruvchanligini bayon etmagan.

Qirg'ovulning arabcha nomi **durroj** bo'lib, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asarida *durrāj*, Alisher Navoiy asarlarida *durrāj* va fors-tojikcha *tazarv* so'zlari ham ishlatilgan [Abdushukurov, 2020:61]. Qirg'ovul *ayn*. Tustovuq [O'TIL, 2006-2008:304] sifatida berilgan. Tustovuq tovuqlar zotiga mansub, patlari chiroyli, asosan, to'qayzorlarda yashaydigan, ovlanadigan qush, qirg'ovul [O'TIL, 2006-2008:205] deb izohlangan.

“Boburnoma”da **durroj** ornitonimi bir necha o‘rinlarda keladi. Tovusning go‘shiti durrojnigiga o‘xshatilgan [Bobur, 1960:347]. Hindistonda uchraydigan durroj turlari farqlangan. “Yana bir durrojdur. Bu Hinduston maxsus emastur. Garmser vilyotlarida bo‘lur, vale ba‘zi jinsi Hindustondin o‘zga yerda bo‘lmas uchun muni taqrib bila zikr qildim. Durrojning jussasi kaklikcha bo‘lg‘ay. Narining orqasi qirg‘ovulning modasi rangidektur, bo‘g‘zi va ko‘ksi qoradur, oq-oq tuklari bordur, ikki ko‘zining ikki yonida qizil xatte tushubtur. Modasi qirg‘ovulning yuzlaridek ranglikdur. Nijrovdin quyi bo‘lur” [Bobur, 1960:349]. Durroj tovuqsimonlar turkumidan qirg‘ovulsimonlar oilasiga mansub qush, ko‘p jihatdan kaklikka o‘xshaydi. “Boburnoma”da Arabiston, Hindiston va Astrobod durrojlari tilga olingan. Hindiston va Astrobod durroji deganda Bobur Uzoq Sharqdan Anatoliya yarimoroligacha tarqalgan Osiyo kakligini nazarda tutgan bo‘lishi kerak. U Hindiston durrojlarini tavsiflab, ular “Shir doram shakarak” (“sutim bor shakarday”) deb qichqirishlarini, Astrobod durrojlarining esa, “Bishshukri ta‘uman ni‘am” (“Shukr farog‘at keltiradi”) deya sayrashini mutoyiba tarzida bayon qilgan [Bobur ensk., 2017:256]. Kanjal durroj jinsiga mansub qushlardan ekanligini ham qayd etadi. “Yana bir durroj jinsi bir qushdur, “**kanjal**” derlar. Jussasi durrojcha-o‘q bo‘lg‘ay, uni kaklikning uniga xili o‘xshar vale muning uni ko‘p tezdur. Nari bilan modasinng rangi orasida tafovut kamdur. Parshovar va Xashangar viloyatida va andin quyig‘i viloyatlarda bo‘lur, andin yuqqori bo‘lmas” [Bobur, 1960:349]. Asar matnida durrojning besh turi izohlangan.

Sor ornitonimi fors-tojikcha o‘zlashma so‘z bo‘lib, *sār* shaklida eski o‘zbek tili manbalarida uchraydi. Aynan **chug‘urchuq** qushi bilan ma‘nodosh sifatida qo‘llangan. Asarda hind qushlari bilan solishtirilgan o‘rinlari bor. Ulug‘ bo‘zak qushini “Ulug‘ligi sorchu bo‘lg‘ay” [Bobur, 1960:350] deb keltirgan. “Yana bir sor bo‘ladur orqasi va quyrug‘i qizil” [Bobur, 1960:351] ta‘rifi ham keltiriladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sor qarchig‘aylar oilasiga mansub yirtqich qush [Bobur ensk., 2017:411], sariqsor hisoblanadi [O‘TIL, 2006-2008:534]. Sariqsor *zool.* qarchig‘aylar oilasiga mansub yirtqich qush; sor [O‘TIL, 2006-2008:450]. Ornitonim hind qushlari bilan shakliy o‘xshatishda qo‘llangan.

Sariqqush yapaloqqushlar oilasiga mansub tur bo‘lib, tungi hayot kechiradigan ornitonim, yapaloqqa o‘xshash qush hisoblanadi.

Shahboz fors-tojikcha *bāz* o‘zlashmasi *lochin* ma‘nosida dastlab, Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida kelgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida *kekük* “lochin”, *buymal* “yovvoyi lochin” ma‘nosini bildirgan. Bu zoonim Alisher Navoiy asarida fors-tojikcha *šahbāz*, *itolg‘u* [Navoiy, 1983:82] termini bilan ham kelgan [Abdushukurov, 2020:31]. Italg‘u ayn. italg‘i [O‘TIL, 2006-2008:241]. Italg‘i lochinsimonlar oilasiga mansub ov qushi sifatida foydalaniladigan yirtqich qush hisoblanadi [O‘TIL, 2006-2008:242]. Shahboz terminining tojik tilida *shohboz* va *shahboz* shakllari ma‘lum. O‘zbek adabiy tiliga *shahboz* shakli o‘zlashgan. “Podsho” ma‘nosini anglatuvchi *shoh* oti bilan “lochin” ma‘nosini anglatuvchi *boz* otidan tuzilganligi ma‘lum [Rahmatullayev, III. 2009:263].

Lochin ornitonimi 2 xil shaklda uchraydi:

• **Shahboz:** “Ushbu kun mening bir yaxshi shahbozim (yo‘g‘oldi)kim. Shayxim Mirishkor saxlab edikim, turnani va laklakni asru xo‘blar olib edi, ikki-uch tullab edi.

Andoqlar olib edikim, mendek havassiz kishini qushchi qilib edi” [Bobur, 1960:299]. Bobur shahbozi bilan bo'lgan voqeani afsus bilan eslagan.

• **Tuyg'un:** “*Odina kuni Muhammad Ali Haydar rikobdor bir tuyg'un kelturub tortti*” [Bobur, 1960:314]. Tuyg'un- lochin deb izohlangan. Boshqa manbada tuyg'un-oq qarchig'ay sifatida berilgan [Qilichev, 2022:10]. Qarchig'ay kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o'tkir, ovga solinadigan yirtqich qush [O'TIL, 2006-2008:253]. Nomi turlicha izohlansa-da, barcha so'zlar ma'nosi ov uchun mo'ljallangan va yirtqich qush vazifasini bajarishi aniq bo'lmoqda. Shahboz- sariqbosh (shahin) lochin. 1. Shunqor, lochin sifatida keltirilgan [O'TIL, 2006-2008:561].

Yana bir ornitonim **ro'bai parron** bo'lib, asarda shunday ta'riflanadi. “*Nijrov tog'larida ro'bai parron bo'lur. Ro'bai parron bir jonivoredur, mushukdin uluqroq, ikki qo'li bila ikki butining orasida pardadur, shapparaning qanotidek, doim keltururlar edi. Derlarkim, yig'ochdin yig'ochga nishebga boqa bir gaz otimi uchar. Men xud uchqonini ko'rmadim. Yig'ochga qo'yduk, chust yormashib chiqdi, andin quvladilar, qanotini totib, uchqandek etib, beozozor tushti*” [Bobur, 1960:193]. Bobur ensiklopediyasida ornitonim uchar olmaxon deb ta'riflanadi. Uchar olmaxon kemiruvchilar turkumiga mansub, o'rmonda yashaydi, ko'zlar katta, qora. Oldingi va keyingi oyoqlari oralig'idan, oldingi oyoqlardan boshiga o'tgan buklama terilar bir daraxtdan boshqasiga uchib o'tish uchun xizmat qiladi. 50 m gacha uchishi mumkin. Dumi yordamida uchish yo'nalishini 90° gacha o'zgartira oladi [Bobur ensk., 2017:392]. Ro'bai parron “Boburnoma”ning 2008-yilgi nashrida uchar tulki deb talqin qilingan [Bobur, 2008:114]. Ornitonimning bir qismi fors-tojikcha so'zdan shakllangan [Xolmanova, 2021:120]. Ro'bai- so'zida “ro'b” chorak ma'nosini bildirsa, parron-uchib kelayotgan, teshib o'tadigan o'q ma'nolarini bildiradi. Demak, bu zoonim qisman uchuvchi hayvon ma'nosini anglatishi mumkin.

Yana bir ornitonim **to'ti** fors tilidan o'zlashgan so'z hisoblanib, tropik o'rmonlarda yashaydigan, ko'pchilik turi chiroyli, rang-barang patli qush hisoblanadi. To'tiqush deb ham nomlanadi [O'TIL, 2006-2008:348]. “Boburnoma”da to'tilar haqida bir necha o'rinda ma'lumot beriladi. Nijrov va Lamg'anoqning Savod va Bajur tog'laridagi Hindiston qushlari, Hindiston jonivorlari ichida *to'ti* va shorak va to'vus va lo'cha va maymun va nilagov va ko'tahpoy kabi qushlar bilan ko'p uchrashi ta'kidlangan [Bobur, 1960:198]. Hindistonda uchragan to'tilarning 6 xili va ularning farqlarini ta'rif va tavsif etadi [Bobur, 1960:348].

Shuningdek, ayrim to'tilarning bir necha so'zdan tashkil topgan jummalarni taqlidan ayta olishi bayon etilgan [Bobur ensk., 2017:459]. Boburning mulozimi Abulqosim Jaloyir to'tining qafasi yopiqligida to'liq jumla aytganini bayon qilgan [Bobur, 1960:348].

Xulosa. “Boburnoma” boy ma'lumotlarga ega “tilla sandig'i” ekanini turli soha mutaxassislari tan oladi. Asar leksik qatlamida arab va fors-tojik tilidan o'zlashgan ornitonim nomlari uchraydi. Quyida ularning asar matnida qo'llanishini jadval asosida ko'rib chiqamiz:

№	Turkiycha	Arabcha	Fors-tojikcha	Vaqt
1.	-	bulbul/andalib	hazārdāstān/hazār	XIV asr
2.	jibljibon	sandug'och	-	



3.	kökärçin ögäyik, ögäyk	Hamāma	kaptar/kabutar	XIV asr
4.	yun quş	Tāvus syn.hindcha,mo‘r	-	XIV asr
5.	käläk, ayuq	laqaq(un)	laklak	-
6.	-	Buqalamun hind.lo‘cha	-	
7.	qirg‘ovul/ tustovuq	Durrāj	tazarv	
8.	chug‘urchuq	-	sor	
9.	Lochin	-	shahboz, A.Navoiyda itolg‘u	
10.	-	-	ro‘bai parron	
11.	-	-	to‘ti	

“Boburnoma”da o‘zlashgan qatlamga mansub ornitonimlarning tilimizga kirib kelishi dastlab, sinonim sifatida qo‘llangan. Ba’zi o‘zlashmalarda ustunlik seziladi. Masalan, tovus, kaptar zoonimlarida turkiy nom hozirda umuman qo‘llanmaydi.

Etimologik tahlillar tilning aslligini va boy mamzun-mohiyatini o‘rgatishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Абдушукуров Б. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили. –Тошкент: Нодирабегим, 2020.
2. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. –Тошкент, 1983.
3. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. –Тошкент: ФА нашр, 1960.
4. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасанов. –Тошкент, 2002.
5. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. –Тошкент: Ўқитувчи, 2008.
6. Бобур энциклопедияси. –Тошкент: Шарқ, 2017.
7. Исҳоқов Ф. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. – Андижон, 2008.
8. Муҳаммадиева Д. “Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Филол. фан. докт... дисс. –Тошкент. 2021. –Б.31.
9. milliycha.uz sayti
10. Qilichev B. “Onomastika” fanidan mustaqil ta’lim uchun materiallar, metodik ko‘rsatma. –Vuxoro, 2022.
11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсий-тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилар). III жилд -Тошкент: Университет, 2009. 282 б.
12. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II жилд (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). -Тошкент: Университет, 2003. 599 б.
13. Rasulova O. “Boburnoma” va tabiat. “Jahon adabiyoti” jurnali. 2005. 2-son.
14. Вафоев Б. Кўҳна сўзлар тарихи. –Тошкент: Фан, 1991.
15. Холмонова З. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr, 2021.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Мадвалиев А. таҳрири остида. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006-2008.